

4. Vygotsky, L. S. Imagination and Creativity in Childhood – bolalar tasavvuri va ijodiy tafakkuri rivojlanishining psixologik asoslari
5. Hamidova Sh. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar.
6. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha talim vazirligi "Maktabgacha talim tashkilotlari uchun tasviriy faoliyatetodik tavsiyalari",

ABU ALI IBN SINO BOBOMIZNING BUYUK TABIB BO’LISH SIR ASRORLARI

Sulaymanov Xamro Ergashovich

Sayxunobod tuman 2-son Politexnikumning ishlab chiqarish ta’lim ustasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Abu Ali ibn Sino bobomizning tibbiyot faniga qiziqishi, mehnatsevarligi orqali fizika, musiqa, adabiyat, astronomiya fanlariga qo’shgan xissasini tar’iflab berildi.*

Kalit so’zlar: *“Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») , Avitsenna.*

Jahon fani, hususan tabobat ilmi taraqqaiyatiga ulgan hissa qo’shgan Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino tabiiy fanlarni, hususan tabobatni sevib o’rgangan. Abu Ali ibn Sino tug’ma iste’dodi va mehnatsevarligi tufayli Tib ilmida u juda tez kamol topa boshlagan. Abu Ali ibn Sino o’z tajrimai holida, -qiyin ilmlardan emas, shu sababdan qisqa muddat ichida bu fanda juda ilg’orlab ketdim, endi hatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan saboq oladigan bo’ldilar. Bemorlarni ham davolab turardim va shu yo’sinda ortdirgan tajribalarim natijasida, muolija eshiklari menga shu qadar keng ochilib ketdiki, uni ta’riflab berish qiyin deydi.

Abu Ali ibn Sino o’n etti yoshida Buxora xalq orasida mohir tabib sifatida dong chiqardi. O’sha kezlarda Somoniylar davlatining boshligi Nuh ibn Mansur kasal bo’lib, saroy tabiblari uni davolashdan ojiz edilar. Yosh tabib amirni davolash evaziga saroy kutubxonasidan foydalanish imkonidatiga ega bo’ladi. Butun o’rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilishi natijasida Abu Ali ibn Sino o’z bilim doirasini mislsiz darajasiga kengaytirdiki buyuk tabib bo’lishiga erishdi.

“Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») - ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e‘tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o‘girilgan ko‘plab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat bo‘lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta‘rifiga bag‘ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o‘simlik ko‘rinishidadir

Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida jismoniy mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o‘rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to‘xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta‘rif bergan.

Agar inson mo‘‘tadil va o‘z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo‘lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to‘xtatar ekan, u so‘nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo‘g‘imlarni, asabni mustahkam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergan. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to‘xtalgan.

Kimyo sohasida Abu Ali ibn Sino efir moylarini haydash jarayonini ochgan. Xlorid, oltingugurt va azot kislotalari, kaliy va natriy gidroksidini chiqara olgan.

Ibn Sino astronomiya sohasida Arastuning yulduzlarga Quyosh nuridan yorug‘lik tushadi degan qarashlariga qarshi chiqarkan, yulduzlar o‘z yorug‘ligi bilan porlaydi, shuningdek, sayyoralar ham o‘zi nur sochadi, deya tahmin qilgan. 1032 yil 24 may kuni Zuhra sayyorasi Quyosh gardishidan o‘tayotganini kuzatganini ma‘lum qilgan. Biroq, hozirgi zamon olimlari mazkur o‘tish aynan shu yerda va shu vaqtda bo‘lganligiga gumon qilishadi. Bu kuzatuvdan u ptolomey kosmologiyasiga binoan, Zuhra sayyorasi gohida Yerga Quyoshdan ko‘ra yaqinoq kelishini asoslash maqsadida foydalangan.

Mexanika Abu Ali ibn Sino to‘plangan (yoki qayd qilingan) kuch nazariyasiga katta xissa qo‘shgan. Bu o‘rta asr harakat nazariyasi bo‘lib, tana sarf qilgan harakat (keyinroq impetus nomini olgan) shunday kuchki, u tashqi manbalardan to‘plangan. Uning fikricha, “harakatga keltiruvchi kuch” (inson qo‘li, tarang tortilgan kamon ipi, palaqmon va boshqalar) harakatlanayotgan tanaga ba‘zi “intilish” haqida xabar beradi, go‘yo olov suvga issiqlik uzatgani kabi. Harakatga keltiruvchi kuch o‘rnida, shuningdek, og‘irlik ham bo‘lishi mumkin.

“Intilish” uch xil bo‘ladi: ruhiy (tirik jonzotlarda), tabiiy va g‘ayritabiiy. “Tabiiy intilish” og‘irlik va tana tushishi natijasida yuzaga keladi, ya’ni Arastu ta’limotiga ko‘ra tananing tabiiy harakat holatida. Bunday holatda “intilish” harakatsiz tana holatida harakatga qarshilik ko‘rsatgan holda bo‘lishi ham mumkin. “G‘ayritabiiy intilish” filoponovsk harakatlanayotgan kuch analogi bo‘lib, u tashlangan tananing harakatga keltiruvchi kuchiga xabar beradi. Bo‘shliqda “g‘ayritabiiy intilish” o‘zgarmaganda edi, tana betinim harakatni amalga oshira olgan bo‘lar edi. Bunda olim inersiya tushunchasini oldindan ko‘rganligini payqash mumkin, lekin Avitsenna bo‘shliq tushunchasiga ishonmagan. Abu Ali ibn Sino “G‘ayritabiiy intilish”ga miqdoriy baho berishga uringan: uning fikriga ko‘ra, u vazn hamda tana harakati tezligiga teng.

Ehtimol, Abu Ali ibn Sinoning lotin tilidagi sarflangan kuch haqidagi g‘oyalari g‘arbda mashhur bo‘lib, Buridanning impetus nazariyasi rivojiga zamin bo‘lgandir.

Falsafa Abu Ali ibn Sino metafizika fani tushunchasida Arastu izidan borgan. Al Farobiydan keyin u mavjudlik va mavjud emaslik o‘rtasidagi farqni boshqalarga nisbatan hamda mavjudlik va mavjud emaslik o‘rtasidagi farqni o‘ziga nisbatan ko‘rsatadi. Abu Ali ibn Sino yaratganning abadiy ekanligini ta’kidlaydi. Abadiylik tushunchasini Abu Ali ibn Sino emanatsiyaning noopltonik tushunchasi yordamida tushuntirib, shu orqali u boshlang‘ich yagonalikdan ko‘plik jonzotlar dunyosiga o‘tishni mantiqiy yoritib bergan. Biroq, koinotga bir kishi kelib chiqishining yakuniy natijasi sifatida emas, balki barcha ixtiyoriy mavjudodning zarur elementi sifatida qarab, noopltonik tushunchadan farqli ravishda, emanatsiya jarayonini samoviy osmon olami bilan chegaralab qo‘ydi. Koinot uch olamga bo‘lingan: moddiy dunyo, yaralmagan abadiy qiyofa dunyosi va dunyoning barcha xilma-xilliklarini o‘zida jalb qilgan dunyo. Inson tanasi va qalb birligi tirik jonni hosil qiladi; falsafiy fikrlovchi insonga aqlli qalbni qabul qilishga moyil tana asos bo‘ladi. Mutloq haqiqatga fikrlash jarayonining eng yuqori nuqtasida hozir bo‘luvchi ichki hissiyot orqali erishiladi.

Ibn Sinoning tasavvuf asarlar doirasiga “Qushlar haqida kitob”, “Sevgi haqida kitob”, “Duo mohiyati haqida kitob”, “Ziyoratchilik mohiyati haqida kitob”, “O‘limdan qo‘rqishdan halos bo‘lish haqidagi kitob”, “Qismat kitobi” kabilar kiradi.

Psixologiya Abu Ali ibn Sino, shuningdek, temperament va inson xarakteri haqida o‘z ta’limotini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, inson mijozi to‘rtga bo‘linadi: issiq, sovuq, nam va quruq (zamonaviy psixologiyadagi to‘rt mijozga mos ravishda). Mazkur mijozlar turg‘un emas, balki meteorologik va havo o‘zgarishi kabi tashqi yoki ichki omillar natijasida o‘zgaradi. Organizmdagi suyuqlik darajasi ham inson mijoziga o‘zgarishlar kiritishi mumkin. Oddiy mijoz turlari

bilan birga, Avitsenna yana to‘rt mukammal mijozni ajratib, ular organizmdagi to‘rt suyuqlikdan biri (qon, shilliq, sariq va qora safro) ustun kelishiga ko‘ra tuslanishini bayon qilgan.

Adabiyot Abu Ali ibn Sino o‘zining ko‘pgina ilmiy ishlarini to‘rtliklardan foydalanib, doston ko‘rinishida yozgan. Shunday shaklda “Sevgi haqida risola”, “Qushlar haqida risola” va boshqa asarlari yozilgan. Ijodi namunalari orasida she‘riy to‘rtliklar hamda ruboilar ham uchrab turadi.

Abu Ali ibn Sinoning asosiy adabiy asarlari-falsafiy kinoya-qissa “Xay ibn Yakzan”, yigirmata ikki misrali “Qushlar” bayti, “Salomon va Absal”. Mazkur asarlar va ruboilar arab, eron va turk adabiyoti rivojida katta o‘rin egallaydi. Jumladan, XII asr eron ijodkorlaridan mumtoz shoir Umar Xayyom Abu Ali ibn Sinoni o‘z ustozlari deb bilgan.

Musiqqa Avitsenna, shuningdek, musiqqa nazariyasiga oid asarlar ham yozgan bo‘lib, ular ijodkorning ensiklopedik ishlarining bir qismidir:

- “Davo kitobi”da “Ilmda musiqiy to‘plam”;
- “Najot kitobi”da “Musiqqa haqida kichik bayon”;
- “Bilimlar kitobi”dagi musiqqa bo‘limi.

Nazariy nuqtai nazardan Abu Ali ibn Sino o‘rta asr an‘analariga ko‘ra musiqani matematik bilimlar toifasiga kiritgan. U musiqaga tovushlarni o‘rganuvchi, ularning mutanosib jo‘rligi natijasida kuy hosil bo‘luvchi fan deb qaragan. Pifagor ta‘limotidan kelib chiqqan holda, u musiqqa sonlarga tegishli va ular bilan uzviy bog‘liqdir, deb bilgan.

Abu Ali ibn Sino tarixda birinchi bo‘lib musiqaga faqat matematik fan emas, balki jamiyatshunoslik, psixologiya, poetika, etika va fiziologiya nuqtai nazaridan ham qarab, musiqqa tarixiga puxta ilmiy tayanchni asoslaydi.

Buyuk olim O‘rta Osiyoda keng tarqalgan kamonli asbob bo‘lmish g‘ijjakni ham ixtiro qilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Ali ibn Sino “ Tib qonunlari” Toshkent 2020 yil
2. Абу Али ибн Сино “КАНОН ВРАЧЕБНОЙ НАУКИ ТОШКЕНТ 1954 йил